O‘ZBEKISTON SHAROITIDA TARBIYALANAYOTGAN O‘SMIRLARDA XULQ-ATVORNI O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH USLUBINING JINS VA OILA TURIGA BOG‘LIQ XUSUSIYATLARI

G.S.Yunusova[1]

1. Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Farg’ona davlat universiteti

Mas'ul muallif: Yunusova Go’zal Sultonovna, Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Farg’ona davlat universiteti.

e-mail: yunusovag73@gmail.com

Received: 29 Oktabr 2026
Accepted: 03 Noyabr 2026
Published: 08 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Yunusova, G. S. O‘ZBEKISTON SHAROITIDA TARBIYALANAYOTGAN O‘SMIRLARDA XULQ-ATVORNI O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH USLUBINING JINS VA OILA TURIGA BOG‘LIQ XUSUSIYATLARI / G. S. Yunusova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 220–224.

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston sharoitida tarbiyalanayotgan o‘smirlarda xulq-atvorni o‘z-o‘zini boshqarish uslubining xususiyatlari, ularning jins va oila turiga bog‘liqligi hamda sababiy omillari yoritilgan. Tadqiqot V.I. Morosanovaning «Xulq-atvorni o‘z-o‘zini boshqarish uslubi» so‘rovnomasi asosida o‘tkazildi. Natijalar o‘smirlarda o‘z-o‘zini boshqarish asosan o‘rtacha darajada shakllanganini va uning tarkibiy bo‘g‘inlari notekis rivojlanganini ko‘rsatdi. O‘z-o‘zini boshqarish uslubida jinsga bog‘liq farqlar hamda oila tarkibining muhim ta’siri aniqlandi. Olingan natijalar yosh, ijtimoiy-madaniy, oilaviy va pedagogik omillar nuqtai nazaridan psixologik jihatdan izohlangan.

Kalit so'zlar: o‘smirlik, o‘z-o‘zini boshqarish, regulyativ uslub, rejalashtirish, modellashtirish, mustaqillik, refleksiya, gender sotsializatsiya, oila tarkibi, sababiy omillar.

ПОЛОВЫЕ И СЕМЕЙНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СТИЛЯ САМОРЕГУЛЯЦИИ ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ, ВОСПИТЫВАЮЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В статье рассматриваются особенности стиля саморегуляции поведения у подростков, воспитывающихся в условиях Узбекистана, их зависимость от пола и типа семьи, а также причинные факторы. Исследование проведено на основе опросника В.И. Моросановой «Стиль саморегуляции поведения». Результаты показывают, что саморегуляция у подростков в основном сформирована на среднем уровне, а её компоненты развиваются неравномерно. Выявлены гендерные различия в стиле саморегуляции и значимое влияние состава семьи. Полученные данные интерпретированы с точки зрения возрастных, социально-культурных, семейных и педагогических факторов.

Ключевые слова: подростковый возраст, саморегуляция, регулятивный стиль, планирование, моделирование, самостоятельность, рефлексия, гендерная социализация, состав семьи, причинные факторы.

GENDER- AND FAMILY-TYPE-RELATED CHARACTERISTICS OF BEHAVIOURAL SELF-REGULATION STYLES AMONG ADOLESCENTS RAISED IN UZBEKISTAN

Abstract. The article examines the features of behavioral self-regulation style in adolescents raised in Uzbekistan, their dependence on gender and family structure, and their causal factors. The study was based on V.I. Morosanova’s “Style of Self-Regulation of Behavior” questionnaire. The results show that self-regulation in adolescents is formed mainly at an average level and that its components develop unevenly. Gender differences in self-regulation style and a significant influence of family structure were identified. The findings are interpreted in terms of age-related, socio-cultural, family and educational factors.

Keywords: adolescence, self-regulation, regulatory style, planning, modeling, independence, reflection, gender socialization, family structure, causal factors.

Bugungi kunda O‘zbekistonda yosh avlodni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan va o‘z hayotiga mas’uliyat bilan yondashadigan shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bola huquqlari, uning shaxs sifatida shakllanishi va oilada tarbiyalanishiga oid kafolatlar O‘zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunida mustahkamlab qo‘yilgan. Bu vazifani amalga oshirishda o‘smirning o‘z xulq-atvorini ongli ravishda boshqara olishi, ya’ni maqsad qo‘yish, unga erishish yo‘llarini rejalashtirish va natijani baholay bilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro uzoq muddatli tadqiqotlar bolalik va o‘smirlik davridagi o‘z-o‘zini nazorat qilish darajasi kattalikdagi sog‘liq, moddiy farovonlik va huquqbuzarlikdan xoli hayotni ishonchli bashorat qilishini ko‘rsatgan [1]. Shu bilan birga, o‘smirlik davrida emotsional ta’sirchanlik tez rivojlanadi, kognitiv nazorat tizimlari esa kechroq yetiladi, bu esa xavfli xulq-atvorga moyillikni oshiradi [2].

Xulq-atvorning ongli o‘z-o‘zini boshqarish nazariyasi O.A. Konopkin tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda maqsad qo‘yish, muhim shart-sharoitlarni modellashtirish,

harakatlar dasturini tuzish va natijalarni baholash bo‘g‘inlari ajratilgan [3]. V.I. Morosanova bu yondashuvni rivojlantirib, o‘z-o‘zini boshqarishning individual uslubi tushunchasini kiritdi va uning tarkibiy bo‘g‘inlari hamda regulyativ-shaxsiy xususiyatlari (moslashuvchanlik, mustaqillik) turli shaxslarda turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi [4]. Xorijiy psixologiyada ham o‘z-o‘zini boshqarish rejalashtirish, bajarish va o‘z-o‘zini aks ettirish bosqichlaridan iborat tsiklik jarayon sifatida talqin etiladi [5].

O‘smirlik davri shaxsning mustaqillikka intilishi, o‘z-o‘zini anglashi va ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishi bilan tavsiflanadi [6; 7]. Bu jarayonga oila muhiti kuchli ta’sir ko‘rsatadi: ota-onalardan birining yo‘qligi yoki ajrim bolalarning psixologik moslashuvi va xulq-atvoriga salbiy ta’sir etishi ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan [8]. Biroq O‘zbekistonning milliy-madaniy sharoitida, ya’ni oilaviy an’analar, jinsga bog‘liq tarbiya me’yorlari, mahalla instituti va mehnat migratsiyasi kabi omillar ta’siri ostida o‘smirlarning o‘z-o‘zini boshqarish uslubi, ayniqsa uning jins va oila turiga ko‘ra farqlari hamda bu farqlarni keltirib chiqaruvchi sabablar yetarlicha o‘rganilmagan. Mana shu holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot maqsadi – O‘zbekiston sharoitida tarbiyalanayotgan o‘smirlarda xulq-atvorni o‘z-o‘zini boshqarish uslubining tarkibiy xususiyatlarini, ularning jins va oila turiga bog‘liqligini aniqlash hamda ushbu xususiyatlarni belgilovchi sababiy omillarni psixologik jihatdan asoslash.

Tadqiqotda O‘zbekiston sharoitida tarbiyalanayotgan 400 nafar o‘smir (200 nafar o‘g‘il bola va 200 nafar qiz) ishtirok etdi. Ishtirokchilar oila turiga ko‘ra to‘liq va noto‘liq oilada tarbiyalanayotganlar guruhlariga ajratildi.

Asosiy metodika sifatida V.I. Morosanovaning «Xulq-atvorni o‘z-o‘zini boshqarish uslubi» (SSPM) so‘rovnomasi qo‘llandi [9]. So‘rovnoma o‘z-o‘zini boshqarishning to‘rt tarkibiy bo‘g‘ini (rejalashtirish, modellashtirish, dasturlash, natijalarni baholash) hamda ikki regulyativ-shaxsiy xususiyat (moslashuvchanlik va mustaqillik) ni o‘lchaydi. Har bir shkala bo‘yicha maksimal ball 9 ga, umumiy daraja bo‘yicha esa 46 ga teng. Umumiy daraja uchun past (≤ 23), o‘rtacha (24–32) va yuqori (≥ 33) daraja chegaralaridan foydalanildi.

Ma’lumotlar o‘rtacha qiymat va standart og‘ish (M ± SD), foiz taqsimoti hamda guruhlar o‘rtasidagi farqlarni baholash uchun Styudentning t-mezoni yordamida qayta ishlandi. Farqlar $p < 0,05$ darajada statistik ahamiyatli deb qabul qilindi.

O‘smirlarda o‘z-o‘zini boshqarishning umumiy darajasi 27,8 ± 5,4 ballni tashkil etdi va o‘rtacha daraja chegarasida joylashdi (1-jadval).

1-jadval.

Shkalalar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar (M ± SD)

Shkala	Maks. ball	O‘g‘il bolalar (n=200)	Qizlar (n=200)	Umumiy (n=400)
Rejalashtirish	9	5,1 ± 1,7	5,9 ± 1,6	5,5 ± 1,7
Modellashtirish	9	4,9 ± 1,8	4,6 ± 1,7	4,8 ± 1,7
Dasturlash	9	5,8 ± 1,9	6,4 ± 1,8	6,1 ± 1,9
Natijalarni baholash	9	4,7 ± 1,6	5,3 ± 1,5	5,0 ± 1,6
Moslashuvchanlik	9	6,2 ± 1,7	5,6 ± 1,8	5,9 ± 1,8
Mustaqillik	9	4,6 ± 1,8	3,8 ± 1,7	4,2 ± 1,8
Umumiy daraja	46	27,4 ± 5,6	28,1 ± 5,3	27,8 ± 5,4

Eng yuqori ko‘rsatkichlar dasturlash (6,1) va moslashuvchanlik (5,9) shkalalarida, eng pastlari esa mustaqillik (4,2) va modellashtirish (4,8) shkalalarida qayd etildi. Darajalar bo‘yicha taqsimotda barcha shkalalarda o‘rtacha daraja ustunlik qiladi (48,3–63,3%), mustaqillik shkalasida esa past daraja ulushi eng katta (41,7%), yuqori daraja atigi 10,0% (2-jadval).

2-jadval.

Rivojlanish darajalari bo‘yicha taqsimot (%)

Shkala	Past daraja	O‘rtacha daraja	Yuqori daraja
Rejalashtirish	16,7	60,0	23,3
Modellashtirish	25,0	58,3	16,7
Dasturlash	20,0	56,7	23,3
Natijalarni baholash	21,7	63,3	15,0
Moslashuvchanlik	18,3	58,3	23,3
Mustaqillik	41,7	48,3	10,0
Umumiy daraja	21,7	63,3	15,0

Bo‘g‘inlar o‘rtasidagi bunday nomutanosiblik tasodifiy emas. Dasturlash, ya’ni harakatlar ketma-ketligini tuzish, asosan tashqi tomondan berilgan namuna va ko‘rsatma asosida shakllanadi. Maktabdagi ta’lim jarayoni o‘quvchidan aynan topshiriqni algoritm bo‘yicha bajarishni talab qiladi, shu sababli bu bo‘g‘in eng yaxshi mashq qilingan. Modellashtirish va natijalarni baholash esa ichki refleksiv faoliyatni talab etadi: o‘smir vaziyatning muhim shartlarini o‘zi ajratishi va o‘z natijasini mustaqil mezon asosida baholashi kerak. Bu funksiyalar ichki, ongli boshqariladigan psixik jarayonlar bo‘lib, ular

L.S. Vigotskiy ta'kidlaganidek, kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyatning interiorizatsiyasi orqali shakllanadi [10].

Modellashtirish va mustaqillikning past bo'lishining birinchi sababi yosh-neyropsixologik omil bilan bog'liq. O'smirlik davrida emotsional-motivatsion tizimlar tez yetiladi, rejalashtirish, oldindan ko'ra bilish va o'z-o'zini nazorat qilishni ta'minlovchi prefrontal tizimlar esa yetuklikka kechroq erishadi [2]. Natijada o'smir harakat qilishga tayyor bo'ladi (dasturlash yuqori), lekin harakat shartlarini to'liq tahlil qilish va oqibatlarini oldindan ko'rishda qiynaladi (modellashtirish past).

Ikkinchi sabab ijtimoiy-madaniy omildir. O'zbek oilasida kattalarga hurmat, ularning fikriga quloq solish va jamoaviy qarorlarga bo'ysunish qadriyat sifatida tarbiyalanadi. Ç. Kag'ıtçıbaşı «munosabatli avtonomiya» modelida ko'rsatganidek, jamoaviy madaniyatlarda mustaqillik ko'pincha yaqinlar bilan bog'liqlik doirasida shakllanadi va individual qaror qabul qilish ijtimoiy jihatdan kamroq rag'batlantiriladi [11]. Shu bois o'smirlar muhim qarorlarni qabul qilishda kattalarga tayanadi, bu esa mustaqillik shkalasidagi past ko'rsatkichlarda (41,7% past daraja) o'z aksini topadi.

Uchinchi sabab pedagogik omil bilan izohlanadi. Ta'lim jarayonida baholash funksiyasi asosan o'qituvchiga tegishli bo'lib, o'quvchi o'z ishini mustaqil mezonlar asosida baholash tajribasiga kam ega. Natijada tashqi nazorat ichki nazoratga aylanmaydi va natijalarni baholash bo'g'ini zaif qoladi. D.B. Elkonin ta'kidlaganidek, o'smirlik davrining yetakchi faoliyati tengdoshlar bilan intim-shaxsiy muloqot bo'lib, o'quv faoliyati o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirishdagi yetakchilik rolini yo'qota boshlaydi [12].

Qizlarda rejalashtirish (5,9 ga qarshi 5,1), dasturlash (6,4 ga qarshi 5,8) va natijalarni baholash (5,3 ga qarshi 4,7) yuqoriroq. O'g'il bolalarda esa moslashuvchanlik (6,2 ga qarshi 5,6), mustaqillik (4,6 ga qarshi 3,8) va modellashtirish (4,9 ga qarshi 4,6) ustun. Umumiy darajada qizlar biroz yuqori natija ko'rsatdi (28,1 ga qarshi 27,4), past daraja ulushi qizlarda kamroq (20,0% ga qarshi 23,3%), yuqori daraja esa ko'proq (16,7% ga qarshi 13,3%).

Gender farqlarning asosiy sababi jinsga bog'liq sotsializatsiya hisoblanadi. O'zbek oilasida qizlar erta yoshdan uy yumushlarini rejali bajarish, tartib-intizomga rioya qilish va kattalar talablariga aniq amal qilishga yo'naltiriladi. Qizning xatti-harakati oila va mahalla tomonidan doimiy kuzatiladi va baholanadi. Bu tashqi nazorat asta-sekin interiorizatsiya qilinib, ichki rejalashtirish va o'z-o'zini baholash ko'nikmasiga aylanadi. Shu bilan birga, qizlarning harakat erkinligi va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati cheklanganligi ularda mustaqillik ko'rsatkichining eng past (3,8) bo'lishiga olib keladi.

O'g'il bolalarga esa an'anaviy ravishda oiladan tashqaridagi faoliyatda ko'proq erkinlik beriladi, ulardan bo'lajak oila boshlig'i sifatida qat'iyat va tashabbuskorlik kutiladi. Ular tez-tez noaniq, oldindan rejalashtirilmagan vaziyatlarga duch keladi, bu esa moslashuvchanlik va vaziyat shartlarini tahlil qilish, ya'ni modellashtirish qobiliyatini mashq qildiradi. Biroq tashqi nazoratning kamligi rejalashtirish va natijalarni baholashning sustroq rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bunda psixologik mexanizm sifatida nazorat lokusi namoyon bo'ladi: qizlarda baholash tashqi me'yorlarga, o'g'il bolalarda esa vaziyatning o'ziga yo'naltirilgan. Regulyativ uslubning ijtimoiy-pedagogik muhitga bog'liqligi V.I. Morosanova tadqiqotlarida ham qayd etilgan [4].

Individual profillar tahlili o'smirlarning faqat 13,3% ida barcha bo'g'inlar bir xil darajada rivojlangan uyg'un profil mavjudligini ko'rsatdi (3-jadval).

3-jadval.

Tipik profillar bo'yicha taqsimot

Profil	Asosiy belgisi	%
№1	Rejalashtirish va dasturlash yuqori; modellashtirish va baholash past	26,7
№6–7	Dasturlash va rejalashtirish yuqori; mustaqillik yuqori, moslashuvchanlik past	23,3
Uyg'un	Barcha shkalalar bir xil darajada	13,3
№4	Modellashtirish, dasturlash va baholash yuqori; rejalashtirish past	11,7
№2	Modellashtirish va baholash yuqori; rejalashtirish past	10,0
№3	Modellashtirish va dasturlash yuqori; rejalashtirish va baholash past	8,3
№5	Modellashtirish yuqori, qolganlari o'rtacha	6,7
Jami		100

Eng ko'p uchraydigan №1 profil (26,7%) «ijrochi» tipdagi regulyatsiyani aks ettiradi: o'smir maqsad qo'yib, harakatlarni rejalashtira va bajara oladi, lekin vaziyat shartlarini tahlil qilish va natijani tanqidiy baholashda qiynaladi. Bunday o'smirlar rejani bajarsa-da, xatolarini o'z vaqtida sezmaydi va tuzatmaydi. Bu profilning keng tarqalishi yuqorida qayd etilgan pedagogik omil bilan bevosita bog'liq: reproduktiv ta'lim tayyor algoritmni bajarishni rag'batlantiradi, ammo refleksiya va o'z-o'zini baholashni yetarlicha rivojlantirmaydi.

№ 6–7 profil (23,3%) yuqori mustaqillik va past moslashuvchanlikning birikmasi bilan ajralib turadi. Bu o'smirlar o'z rejasiga qat'iy amal qiladi, biroq sharoit o'zgarganda rejani qayta qurishda qiynaladi. Bunday regulyatsiya qat'iylikni o'smirlik davriga xos bo'lgan kattalardan mustaqil bo'lishga intilish va «kattalik hissi» bilan izohlash mumkin [6; 12].

Profillarning xilma-xilligi o‘z-o‘zini boshqarishning individual uslubi haqidagi nazariy qarashlarni tasdiqlaydi [4] va psixologik yordamni har bir o‘smirning zaif bo‘g‘iniga qarab individuallashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Jins va oila turi birgalikda olinganda, eng yuqori umumiy daraja to‘liq oiladagi qizlarda (29,5 ± 4,9), eng pasti esa noto‘liq oiladagi o‘g‘il bolalarda (25,4 ± 5,8) kuzatildi (4-jadval).

4-jadval.

Oila turi va jinsga ko‘ra o‘rtacha ko‘rsatkichlar (M ± SD)

Shkala	To‘liq oila, o‘g‘il	To‘liq oila, qiz	Noto‘liq oila, o‘g‘il	Noto‘liq oila, qiz
Rejalashtirish	5,4 ± 1,6	6,2 ± 1,5	4,6 ± 1,8	5,3 ± 1,7
Modellashtirish	5,1 ± 1,7	4,9 ± 1,6	4,5 ± 1,8	4,2 ± 1,7
Dasturlash	6,0 ± 1,8	6,7 ± 1,7	5,2 ± 1,9	5,9 ± 1,8
Natijalarni baholash	5,0 ± 1,5	5,6 ± 1,4	4,3 ± 1,6	4,8 ± 1,6
Moslashuvchanlik	6,4 ± 1,6	5,9 ± 1,7	5,8 ± 1,8	5,1 ± 1,9
Mustaqillik	4,3 ± 1,7	3,6 ± 1,6	5,2 ± 1,8	4,4 ± 1,8
Umumiy daraja	28,6 ± 5,2	29,5 ± 4,9	25,4 ± 5,8	26,1 ± 5,6

Noto‘liq oiladagi o‘g‘il bolalarning 35% i va qizlarning 30% i past darajaga ega, yuqori daraja esa har ikkala guruhda atigi 5% ni tashkil etdi. To‘liq oilalarda bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 15% va 10% (past), 15% va 20% (yuqori). To‘liq va noto‘liq oilalar o‘rtasidagi farqlarning statistik ahamiyatliligi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval.

To‘liq va noto‘liq oilalarni taqqoslash (Styudent t-mezoni)

Shkala	To‘liq oila	Noto‘liq oila	t	p
Rejalashtirish	5,8	5,0	2,05	$p < 0,05$
Modellashtirish	5,0	4,4	1,54	ahamiyatsiz
Dasturlash	6,4	5,6	2,05	$p < 0,05$
Natijalarni baholash	5,3	4,6	2,00	$p < 0,05$
Moslashuvchanlik	6,2	5,5	1,74	ahamiyatsiz
Mustaqillik	4,0	4,8	2,05	$p < 0,05$
Umumiy daraja	29,1	25,8	2,73	$p < 0,01$

Izoh: kritik qiymatlar $t = 1,99$ ($p < 0,05$) va $t = 2,64$ ($p < 0,01$).

To‘liq oiladagi o‘smirlarda umumiy daraja yuqori ishonchlilik bilan yuqori ($t = 2,73$; $p < 0,01$). Ayniqsa rejalashtirish, dasturlash va natijalarni baholashdagi farqlar ahamiyatli ($p < 0,05$). Bu farqlarni bir necha o‘zaro bog‘liq sababiy omillar bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, oila tuzilmasi va kundalik tartib. Ikki ota-onali oilada kun tartibi barqaror, majburiyatlar taqsimlangan va kattalarning nazorati izchil bo‘ladi. Bola o‘z faoliyatini oldindan ma’lum bo‘lgan tartib asosida rejalashtirishni o‘rganadi. Noto‘liq oilada esa yagona ota yoki ona moddiy ta’minot va tarbiya yukini birga ko‘taradi, natijada farzand bilan birgalikdagi rejalashtirish va natijalarni muhokama qilish uchun vaqt kamayadi.

Ikkinchidan, tarbiya uslubi. D. Baumrind tadqiqotlari ko‘rsatganidek, talabchanlik bilan iliqlikni uyg‘unlashtirgan avtoritativ tarbiya uslubi o‘smirlarning ijtimoiy va kognitiv kompetentligining eng muhim omilidir. Ota-onalarning avtonomiyani qo‘llab-quvvatlashi va tushunarli tuzilma berishi bolalarda o‘z-o‘zini boshqarishni bevosita rivojlantiradi. Noto‘liq oilada esa tarbiya ko‘pincha ikki qutbga og‘adi: yo nazoratning susayishi, yo ortiqcha qattiqqo‘llik. Ikkala holatda ham o‘z-o‘zini boshqarishning ichki mexanizmlari yetarlicha shakllanmaydi.

Uchinchidan, emotsional omil. Oiladagi ajrim, ota-onadan birining vafoti yoki uzoq muddatli mehnat migratsiyasi tufayli yo‘qligi o‘smirda xavotir va emotsional zo‘riqishni kuchaytiradi. Emotsional zo‘riqish esa kognitiv resurslarni band qilib, rejalashtirish va baholash kabi «sovuq» regulyativ funksiyalarning samaradorligini pasaytiradi. O‘zbekiston sharoitida mehnat migratsiyasi sababli otaning uzoq vaqt uyda bo‘lmasligi rasmiy jihatdan to‘liq oilani ham amalda noto‘liq oilaga yaqinlashtiradi, bu esa keyingi tadqiqotlarda alohida e’tiborni talab qiladi.

Mustaqillik shkalasida esa teskari manzara kuzatildi: noto‘liq oiladagi o‘smirlarda bu ko‘rsatkich yuqoriroq (4,8 ga qarshi 4,0; $p < 0,05$), eng yuqori qiymat noto‘liq oiladagi o‘g‘il bolalarda (5,2). Buni «majburiy mustaqillik» fenomeni bilan izohlash mumkin. Ota-onalardan birining yo‘qligi o‘smirni erta yoshdan kattalar rolini bajarishga, ya’ni oila a’zolariga g‘amxo‘rlik qilish va kundalik qarorlarni o‘zi qabul qilishga undaydi. Ayniqsa o‘g‘il bolalar an’anaga ko‘ra otaning o‘rnini bosishga intiladi. Biroq bu mustaqillik ichki ehtiyojdan emas, balki tashqi zaruratdan kelib chiqqani va rejalashtirish hamda baholash ko‘nikmalari bilan mustahkamlanmagani sababli umumiy regulyatsiya samaradorligini oshirmaydi. Aksincha, rejasiz mustaqillik impulsiv qarorlar va xavfli xulq-atvor ehtimolini oshirishi mumkin.

Tahlil natijalarini umumlashtirib, o‘smirlarda o‘z-o‘zini boshqarish uslubini belgilovchi sababiy omillar tizimini ajratish mumkin (6-jadval).

6-jadval.

O‘z-o‘zini boshqarish xususiyatlarining sababiy omillari va psixologik mexanizmlari

Omillar guruhi	Aniqlangan natija	Psixologik mexanizm
Yosh-neyropsixologik	Modellashtirish va mustaqillik past, dasturlash yuqori	Prefrontal nazorat tizimlarining emotsional-motivatsion tizimlarga nisbatan kech yetilishi
Ijtimoiy-madaniy	Mustaqillikda past daraja ulushi 41,7%	Jamoaviy qadriyatlar, kattalarga tayanish, munosabatli avtonomiya
Gender sotsializatsiya	Qizlarda rejalashtirish va baholash, o‘g‘il bolalarda moslashuvchanlik va mustaqillik yuqori	Tashqi nazoratning turlicha darajasi va uning interiorizatsiyasi; nazorat lokusi
Pedagogik	№1 «ijrochi» profilning ustunligi (26,7%), baholash bo‘g‘inining zaifligi	Reproduktiv ta’lim, baholash funksiyasining o‘qituvchida qolishi, refleksiyaning kam mashq qilinishi
Oila tuzilmasi	To‘liq oilada umumiy daraja yuqori (29,1 ga qarshi 25,8; $p < 0,01$)	Barqaror kun tartibi, izchil nazorat, ota-onaning ijobiy namunasi
Tarbiya uslubi	Rejalashtirish, dasturlash va baholashdagi farqlar ($p < 0,05$)	Avtoritativ tarbiya va avtonomiyani qo‘llab-quvvatlash
Emotsional	Noto‘liq oiladagi o‘g‘il bolalarda past daraja 35%	Xavotir va emotsional zo‘riqishning regulyativ resurslarni kamaytirishi
Rol almashinuvi	Noto‘liq oilada mustaqillik yuqori (4,8 ga qarshi 4,0)	«Majburiy mustaqillik»: kattalar rolini erta o‘zlashtirish

Ushbu omillar alohida emas, balki o‘zaro ta’sirda harakat qiladi. Yosh-neyropsixologik omil o‘z-o‘zini boshqarishning umumiy imkoniyatlarini belgilaydi, ijtimoiy-madaniy va gender omillar uning yo‘nalishini shakllantiradi, oilaviy va pedagogik omillar esa bu imkoniyatlarning qay darajada ro‘yobga chiqishini ta’minlaydi. Eng katta xavf bir nechta salbiy omillar birlashgan holatda yuzaga keladi. Masalan, noto‘liq oiladagi o‘g‘il bolalarda emotsional zo‘riqish, nazoratning susayishi va majburiy mustaqillik birlashib, eng past umumiy darajani (25,4) keltirib chiqaradi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

O‘zbekiston sharoitida tarbiyalanayotgan o‘smirlarda xulq-atvorni o‘z-o‘zini boshqarish asosan o‘rtacha darajada shakllangan bo‘lib, uning tarkibiy bo‘g‘inlari notekis rivojlangan: harakatlarni dasturlash va moslashuvchanlik nisbatan yaxshi, vaziyatni modellashtirish va mustaqillik esa zaifroq rivojlangan.

O‘z-o‘zini boshqarish uslubida jinsga bog‘liq farqlar mavjud bo‘lib, ular oilaviy tarbiyada qizlar va o‘g‘il bolalarga nisbatan qo‘yiladigan talab va nazoratning turlicha ekani bilan izohlanadi.

Oila tarkibi o‘z-o‘zini boshqarishning muhim omili hisoblanadi: to‘liq oilada tarbiyalanayotgan o‘smirlarda o‘z-o‘zini boshqarish yuqoriroq, noto‘liq oiladagi o‘smirlarda esa mustaqillik ko‘proq tashqi zarurat ta’sirida shakllanadi va samarali regulyatsiyani ta’minlamaydi.

O‘z-o‘zini boshqarish uslubi yosh xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy muhit, oilaviy tarbiya va ta’lim jarayonining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi, shu sababli uni rivojlantirish bo‘yicha ishlar kompleks tarzda olib borilishi lozim.

Amaliy tavsiyalar:

O‘smirlarda o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantirish ishlarini maktab, oila va psixologik xizmat hamkorligida tizimli tashkil etish.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtirish, vaziyatni tahlil qilish va natijalarini baholash uchun ko‘proq imkoniyat yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Moffitt T.E., Arseneault L., Belsky D. et al. A gradient of childhood self-control predicts health, wealth, and public safety // Proceedings of the National Academy of Sciences. – 2011. – Vol. 108, No. 7. – P. 2693–2698.

[2] Steinberg L. A social neuroscience perspective on adolescent risk-taking // Developmental Review. – 2008. – Vol. 28, No. 1. – P. 78–106.

[3] Конопкин О.А. Психологические механизмы регуляции деятельности. – М.: Наука, 1980. – 256 с.

[4] Моросанова В.И. Индивидуальный стиль саморегуляции. – М.: Наука, 1998. – 192 с.

[5] Zimmerman B.J. Attaining self-regulation: A social cognitive perspective // Handbook of Self-Regulation / Eds. M. Boekaerts, P.R. Pintrich, M. Zeidner. – San Diego: Academic Press, 2000. – P. 13–39.

[6] Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – М.: Просвещение, 1968. – 464 с.

[7] G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent, 2010.

[8] Amato P.R. The consequences of divorce for adults and children // Journal of Marriage and Family. – 2000. – Vol. 62, No. 4. – P. 1269–1287.

[9] Моросанова В.И. Опросник «Стиль саморегуляции поведения» (ССПМ): Руководство. – М.: Когито-Центр, 2004. – 44 с.

[10] Выготский Л.С. Педология подростка // Собрание сочинений: в 6 т. – Т. 4. – М.: Педагогика, 1984.

[11] Kağıtçıbaşı Ç. Autonomy and relatedness in cultural context: Implications for self and family // Journal of Cross-Cultural Psychology. – 2005. – Vol. 36, No. 4. – P. 403–422.